

TEXNALOGIYA FANI O'QITILISHINING O'ZIGA XOS AHAMIYATI

Mamajonova Muqaddasxon Qayumovna
Buvayda tumani 39-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqolada boshlang'ich sinflarda texnologiya faninig o'ziga jihatlari, o'quvchilarning turli materiallarga ishlov berish usullarini egallashida kerak bo'ladigan qobiliyatlar va ularni shakllantirishga doir jihatlar yoritib berilgan. Materiallarga ishlov berish bilan bog'liq umummehnat ko'nikmalari har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Jamiyatimizning har bir a'zosining bilim va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan imkoniyatlarning rivojlanib borayotganligi bu ko'nikmalarning zaruratini yanada oshirmoqda.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, mehnat tarbiyasi, texnologiya ta'limi, maqsad va vazifalari, texnologiya ta'limi, jamiyat, metod.

Annotation. This article highlights the skills and aspects of their formation that are necessary for students to master the methods of processing various materials. General labor skills related to material handling are important in everyone's life. The development of market relations aimed at the full realization of the knowledge and potential of each member of our society increases the need for these skills.

Key words: Education, education, labor education, technology education, goals and tasks, technology education, society, method.

Абстрактный. В данной статье освещены навыки и аспекты их формирования, необходимые учащимся для освоения способов обработки различных материалов. Общие трудовые навыки, связанные с погрузочно-разгрузочными работами, важны в жизни каждого человека. Развитие рыночных отношений, направленных на полную реализацию знаний и потенциала каждого члена нашего общества, увеличивает потребность в этих навыках.

Ключевые слова: Образование, воспитание, трудовое воспитание, технологическое образование, цели и задачи, технологическое образование, общество, метод.

Ta'lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologik yondoshuv, ta'limni texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so'z yuritilib, ularga turlicha talqin va ta'riflar beriladi.. «Texnologiya» so'zining grek tilidagi tarjimasini tayyor mahsulot, buyumlar olish maqsadida ishlab chiqarishning mos keladigan qurilma va jihozlari bilan xom-ashyo va materiallarini ishlov berish usullari majmuasini tizimlashtiruvchi fanni anglatadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zida uni «texno» - hunar yoki san'at, «logos» - fan deb, buyum olish uchun xom-ashyolarga ishlov berish san'ati haqidagi fan sifatida anglashiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun texnologiya darslari qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. Ko'pgina fanlar qatorida

yosh avlodning har tomonlama yetuk bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda texnologiya fani o'zining muhim o'rniga ega. Texnologiya fani va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang'ich maktabda butun ta'lim-tarbiya tizimi hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'z navbatida, oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani oldida muhim maqsad va vazifalarni qo'yadi.

Texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati ham muhim hisoblanadi. U o'quvchilarda mehnat turlari haqidagi tushunchalarni shakllantiradi, mehnatga bo'lgan qiziqishni hosil qilib, mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi hamda jamoatchilik hissini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'quvchilarning aqliy jihatdan kamol topib borishlariga zamin yaratadi. Iroda va axloqiy sifatlarni rivojlantirishda ko'maklashadi. O'quvchilarda mehnatga bo'lgan his-tuyg'uning hosil bo'lishi ularda do'stlik, birodarlik, bir-biriga ko'maklashish, do'stona munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni yuzaga keltiradi.

Texnologiya ta'limidagi ish turlari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, har bir ishga ijodiy yondashishga o'rgatadi. Har bir amaliy mashg'ulotimizning izchilligi va ketma-ketligiga a'lohida e'tibor qaratish darkor. O'quvchilarning texnologiya darslarida olgan bilimlari kelajakda ulardan yetuk mutaxassislar, ixtirochilar bo'lib yetishishida as qotadi. Xususan, A.Avloniy o'z asarlarda shunday fikrlarni bildirgan edi: "Bolaning salomatligi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmoq, yaxshi xulqni o'rgatmoq, yomon xulqdan saqlab o'stirmoq va mehnat qilishga undamoq yaxshidir. Tarbiya qiluvchi inson – tabibdir. Tabib xastaning kasaligiga da'vo qilsa, tarbiyachi – boladagi yaxshi xulqni, poklikni, mehnatga layoqatni davolaydi." Amaliy darslarda berilayotgan manbalar o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga mos kelishi kerak, aks holda o'quvchilarni haddan ortiq ma'lumotlar bilan charchatib qo'yishimiz mumkin, buning natijasida o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqish yo'qolib, dars samaradorligi pasayadi, shuning uchun dars jarayonida turli xil metodlardan foydalanish ham dars sifatini yanada samarali bo'lishiga olib keladi.

Metod aslida yunoncha „*metodos*“ so'zidan olingan bo'lib, „*bilish va tadqiqot yo'li*“, „*nazariya*“, „*ta'limot*“ kabi ma'nolarni bildiradi¹. Metodika (*yun. „melhodie“*) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'limot² — ta'lim berish metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandır. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quv yili davomida darslar mazmuni, o'quvchilarga tushuntirish shakl va usullari, amaliy ishlarni bajarish yo'llarini aniq reja asosida ishlab chiqishidir. O'qituvchining ish rejasida quyidagilar bo'lishi kerak: - bolalarning predmetlarni yasash va bolalar kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan ishlarni bajarish; - jamoa birligini, sinfdagi tartib va tozalikni yo'lga qo'yish; - tabiatdagi mashg'ulotlar, matematika, ona tili darslaridagi o'quv ishlari; - bayramlar o'tkazish, bolalarning texnik ijodiy konstruksiyalash, qo'l texnologiyasining har xil turlariga bo'lgan qiziqishlarini qondirish va rivojlantirishda egallagan bilim, ko'nikma, malakalarini kengaytirish va takomillashtirishni izchil biriktirishni ta'minlash kabilar.

O'qituvchi har qanday, hatto eng oddiy predmetni yasash jarayonida ham o'quvchilarga qiyin va politexnik bilim hamda ko'nikmalarning butun bir majmuasini berishni nazarda tutishi lozim.

I. Detallarni belgilab olish va tayyor qilishga kirishishdan oldin bolalarga narsalarni yasash yoki biror ishni bajarish bo'yicha o'z texnologiya faoliyatlarini oldindan rejalashtirishni o'rgatish va singdirish lozim. Bu: a) darsda hal etilishi lozim bo'lgan vazifani va uning ahamiyatini yaxshi tushunish; b) ishning xarakterini, mahsulot konstrukstiyasini-qism yoki detallar sonini, ularni mahsulotga birlashtirish usullarini, kerakli materiallar, o'lchamlar, shakl, mahsulot va detallar proporsiyasini aniq tasavvur qilish; v) detallarni yasash va ularga ishlov berish usullari; o'lchash va hisoblash, materialda razmetka qilish tartibi, ishlov berish, detallarni yig'ish, yakuniy bezak berish va ishni umumiy baholash tartibini aniqlash; g) texnologiyani qanday tashkil etishni, ish joyini tayyorlashni, ishni kichik jamoa o'rtasida taqsimlashni aniqlash demakdir. Oldindan rejalashtirish bosqichi texnologiya jarayonida bolalarning bilish faolliklarini rivojlantirish, ularning aqliy ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish manbayiga aylanishi uchun juda muhimdir. Oldindan rejalashtirish texnologiya ta'limi dasturining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir topshiriq oddiydan murakkabga qarab yo'naltiriladi. O'quvchilar avvaliga oson topshiriqlarni bajaradilar. So'ngra esa mashg'ulotlar murakkablashib, ketma-ket bir-birini to'ldirib boradi. Oldingi darslarda o'rganilgan topshiriqlar keying mashg'ulotning mantiqiy davomi bo'lishi kerak. Dastlab mashg'ulot jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ish olib boradi. Keyinchalik o'quvchilarning mustaqil ishlash darajasi ortib borishi bilan ular o'z ustida tinimsiz mehnat qila boshlaydilar.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.; TDPU. 2007-yil.
3. Egamqulovna, A. M., Gafforova, Z., & Sobirova, G. (2024). EXPRESSION OF PHONETIC MEANS IN ARTISTIC TEXT. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(25), 149-152.
4. Mahfuza, A. (2024). BADIY MATN VA LINGVOPOETIKA. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(25), 145-148.
5. Egamqulovna, A. M.(2023). LINGVOPOETICS IS A BRANCH OF LINGUISTICS THAT STUDIES THE LANGUAGE OF ARTISTIC WORKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 23-26.
6. Mahfuza, A. (2023). FEATURES OF LINGUOPOETIC ANALYSIS OF LITERARY TEXT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(2), 577-579.

7. Валиева, М. С. (2023). ПОСЛОВИЦА КАК ПАРЕМИАЛОГИЧЕСКАЯ ЕДИНИЦА. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 50-53.
8. Yigitaliyeva, S., & Yo'ldoshboyeva, O. (2023). OLIY TALIMDA ONA TILI FANINI O 'QITISHNING NAZARIY MASALALARI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 41-44.
9. Yigitaliyeva, S. (2023). Yaxshilik konseptining bilvosita ifodalanishi. *Mug'allim*.
10. Isog'aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarini o'rgatishning lingvistik konseptual asoslari. *Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali*.
11. Yigitaliyeva, S. (2022). Nayrat-ul abror dostonida so'z ta'rifi. *Scienceweb academic papers collection*.
12. Орипова, К. Э. ЎХШАТИШЛАР ИШТИРОКИДАГИ БАДИИЙ МАТНЛАРДА АНТОНИМЛАР МАДАНИЙ ОМИЛ СИФАТИДА. *МУ АЛЛИМ СЕЎМ ЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ*², 52.
13. Oripova, K. (2023). ANTONYMS AS A CULTURAL FACTOR IN ARTISTIC TEXTS INVOLVING SIMILE. *GOSPODARKA I INNOWACJE*.
14. Oripova, K. (2022). INGLIZ TILIDAGI ANTONIMLARNING BADIY MATNDAGI ROLI. *Scienceweb academic papers collection*.
15. Oripova, K. (2022). TURLI TILLARDAGI ANTONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. *Scienceweb academic papers collection*.
16. Shahista, K., Shohida, I., & Saidaxon, M. (2023). COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND GERMAN LANGUAGES. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(20), 46-49.
17. Shohida, I., & Shahista, K. (2023). CONCEPTUAL INFORMATION IN LANGUAGES ACTIVATING STRUCTURES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 12(03), 56-60.
18. Khatamkulova, S. (2022). To the Problem of Transfer of the National Uniqueness of Proverbs, Sayings and Other Units in Literary Translation. *The Peerian Journal*, 4, 17-19.
19. Shohistakhon, H. (2022). INTERLINGUAL AND INTRALINGUAL INTERFERENCE. *Open Access Repository*, 8(11), 235-239